

**CHIZMACHILIKDAN GRAFIK ISH BAJARISHDA XATOLARGA YO'L QO'YISHGA OLIB
KELADIGAN OMILLAR, OGHLANTIRUVCHI VAZIFALARDAN FOYDALANISHNING
AHAMIYATI**

Turayev Olimjon Suvanovich
TerDU, Texnologik ta'lif kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya: Chizmachilik fanini o'qitish metodlari, o'qitishning qonuniyat va xususiyatlarini aniqlash, samarali metod va usullarni ishlab chiqish, grafik topshiriqlar va texnik vositalar haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Didaktika, gipoteza, tadqiqot metodlari, kuzatish, suhbat, so'rovnomalari o'tkazish, tajriba sinov, ta'limning ilmiyliligi, ta'lim olishning osonligi, ta'limning tizimliligi, amaliyot va hayot bilan aloqa, onglilik va faollik, ko'rgazmalilik, bilimlarni o'zlashtirishning mustahkamligi, ta'limning jamoaviyligi, fanlararo aloqalar.

Ta'limda nazariyani o'rghanish bilan bir qatorda vazifa va mashqlarni bajarish ham mavjud. Vazifa bajarish nafaqat talabalarga ishlab chiqarish va amaliyotda o'rghanilgan nazariyani qo'llash, balki o'rghanilgan nazariyani chuqurroq anhlashni, fikrlashni hamda rivojlanishiga yordam beradi. Chizmachilik fanini o'qitish faoliyatida ham talablarning grafik topshiriqlarini bajarishda katta ahamiyat beriladi. Pedagogikada vazifalarni yechish bo'yicha G.A.Ball hamda boshqalar tomonidan bir qancha ishlar qilingan va kengroq o'rghanilgan.

Biz G.I.Sarantsevning vazifasi va mashq konseptsiyasining mazmunini taqqoslab vazifa konseptsiyaning mazmuni mashq konseptsiyasining mazmunidan kengroq degan fikrga qo'shilaman. Bizning sohamizda ham: "Provokatsion vazifa" iborasini ishlatganda, vazifa konseptsiyasining mazmunini mavzular konseptsiyasining mazmunidan kengroq tushunamiz.

Vazifa qiyin, o'rtacha va murakkab bo'lishi mumkin. Birinchi holda, uning yechimini topish qiyin, ikkinchisida oson. Vazifani bajarishning qiyinligi vazifanining konseptsiyasiga kiradi: qiyinchilik bo'lmasa, muammo ham bo'lmaydi.

M.I.Zaykina, V.A.Kolosovlarning ishlarida "Talabalarning noto'g'ri yechim yoki noto'g'ri javob tanlashga undovchi shartlari, ko'rsatmalar yoki boshqa motivatorlari bo'lgan barcha shu kabi vazifalarga provokatsion xarakterdagi vazifalarni qo'llash" taklif etiladi.

Ogohlantiruvchi vazifalar nafaqat talabalarning, balki maktab va kollej o'quvchilarining ham turli hil noto'g'ri tushunchalarini yoki xatolarini oldini olishning samarali vositasi bo'lib xizmat qilishi mumkin. Darsda ogohlantiruvchi vazifalar qo'llanganda talaba oldindan tayyorlangan tuzoqqa tushganda xijolat tortadi, g'azablanadi, afsuslanib u ushbu holatning o'ziga xos xususiyatlariga ahamiyat bermaganligi sababli noqulay vaziyatga tushub qoladi. O'qituvchi va talabalar oldida xatolarga yo'l qo'ygan

talabada bu vaziyat kuchli taassurot qoldiradi, uzoq vaqt davomida noto'g'ri xatti-harakatlarini eslab qoladi va keyinchalik bunday xatolarga yo'l qo'ymaslik uchun ogohlantirish vazifasini o'tovchi refleks paydo bo'ladi.

M.I.Zaikin, V.A.Kolosova provokatsion xarakterdagi matematik vazifalarning har bir turlarini ajratib ko'rsatishganini ko'rshimiz mumkin.

Adabiyotni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, bir qator olimlar matematika darslarida provokatsion vazifalardan foydalanish muammosiga murojat qilishgan.

I.S.Grigureva, "Bu to'g'rimi....?" degan nom bilan vaqtincha provokatsion ishlarning beshinchi va oltinchi turini taklif qiladi. Muallif ushbu turdag'i vazifalarni quyidagicha tushuntiradi: "Bu talabalar niqoblangan yoki aniq noto'g'ri xulosa chiqaradigan yashirin xato bilan mulohaza yuritishni taklif qiladi."

I.S.Gregorevaning ta'kidlashicha, agar u to'g'ri yoki noto'g'riliqini so'rash uchun fikrlashning har bir bosqichida ogohlantirishni kiritish mumkinligini ta'kidlaydi. Odatda talabalar hiyla-nayrangni sezmasdan "Ha" deb javob berishadi va shu bilan boshqalarning xatosini qabul qilishadi.

Ya.I.Grudenov, A.M.Sereda, V.I.Sereda provokatsion muammolarni psixologiya nuqtai nazaridan ishlatalishni ko'rib chiqdilar. Mualliflarning takidlashicha ogohlantiruvchi mashqlarni muntazam ravishda qo'llash diqqatni, aql-idrokning aniqligini oshiradi, o'z-o'zini nazorat qilishni rivojlantiradi.

Xato, noto'g'ri o'xshashliklarni qo'llash orqali talabalar avvalgi tajribani yangi ob'yektga asossiz ravishda qo'llashi orqali yuzaga keladi.

Shuning uchun, xatolarni keltirib chiqaradigan vazifalar bloklari o'z-o'zini nazorat qilish vositasi bo'lishi mumkin. Blokda ko'rib chiqilayotgan vazifalar qatorida, boshqalar bilan taqqoslanganda bajarilmaydigan vazifa bo'ladi, ya'ni ogohlantirishni o'z ichiga oladi.

Mualliflar M.I.Zaykin va shu kabi olimlar tomonidan oib borilgan provokatsion vazifalarning tavsifi, bizning fikrimizcha, bu savolga aniq javob berishga imkon bermaydi.

Aytishimiz mumkinki, qo'zg'atuvchi vazifa "Soxta yo'nalish" ni o'z ichiga oladi, ya'ni yolg'on yo'nalishga ishora qiladi.

Biz "Provokatsion" tushunchasi orqali "Ogohlantiruvchi vazifa" tushunchasini belgilash kerak deb hisoblaymiz.

Turli lug'atlarni tahlil qilish ko'pgina lug'atlarda "Ogohlantirish" so'zi taxminan bir xil tarzda, bir xil ma'noni anglatishi aniqlanadi: ogohlantirish-bu xoinona xatti-xarakatalar, jiiddiy oqibqlarga olib kelishi mumkin bo'lgan.

Xusosa qilib aytadigan bo'lsak, har bir ogohlantirish turi ma'lum bir turdag'i xatolarning oldini olishga qaratilagan. Bunday ogohlantirish turlari yordamida grafik vazifalarni bajarishda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xatolarning ayniqsa tipik xatolarning oldini olishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Umumiy o`rta ta`limning davlat ta`lim standarti va o`quv dasturi. 4-maxsus son “Chizmachilik” – T.: 1999.
2. Ro`ziyev E.I. Chizmachilik o`qitish metodikasi. – Urganch: UrDU, 2001.
3. Botvinnikov A. D. Puti sovershenstvovaniya metodiki obucheniya chercheniyu. – M.: Prosveshchenie, 1989.
4. J.Y.Yodgorov, T.R. Sobirov, N.J.Yodgorov Geometrik va Proyekzion chizmachilik Toshkent “Yangi asr avlodi” 2008-yil.